

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI

OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

2-2025
TABIIY FANLAR

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

A.V.Maxmudov, O.S.Abduraimov, V.Maxmudov, A.L.Allamurotov	
O'zbekistonda <i>Berberis integerrima</i> bunge tabiiy resurslarining zamonaviy holati	132
M.N.Valiyeva, G.S.Mirzayeva, D.M.Musayev	
O'zbekistonda Reduviidae oilasiga mansub (Heteroptera) yirtqich qandalalarning o'rjanilish holati	142
M.B.Zohidova, G.M.Zokirova	
<i>Xanthogaleruca luteola</i> (Müller, 1766) barg qo'ng'izining mahalliy ekotizimlardagi tarqalishi va avlod almashinushi.....	148
M.X.Akbarova, Z.A.Yusupova	
Botanika, biotexnologiya va ekologiya kafedrasi shonli tarixi.....	153
O.M.Gafurova, Sh.A.Xalimov, B.M.Sheraliyev	
Shohimardonsov va So'x daryolarida tarqalgan <i>Schizothorax eurystromus</i> Kessler, 1872 morfologik o'zgaruvchanlik xususiyatlarining qiyoziy tahlili	160
M.T.Izag'aliyev, G.Yuldashev, B.M.Qo'chqorov, I.M.Aktamov	
Tipik bo'z tuproqlar ekologik transformatsiyasiga sement sanotining ta'siri	167
D.T.Xo'jayev	
<i>Nerium oleander</i> L. "Hardy red" navining laboratoriya sharoitida urug' unuvchanlig	173
M.U.Mahmudov, I.I.Zokirov	
G'arbiy Farg'ona hududidagi Heteroptera: Pentatomidea qandalalarining biotsenotik aloqlari va agroekotizmlardagi ahamiyati	177
D.B.Fayziyeva B.M.Sheraliyev	
Qoratog' va to'palang daryolarida tarqalgan <i>Iskandaria pardalis</i> (Turdakov, 1941) morfologik o'zgaruvchanlik xususiyatlarining qiyoziy tahlili	184
M.R.Shermatov, D.A.Almatova, B.D.Abdikaxorov	
<i>Cidaria distinctata</i> Staudinger, 1892 (Lepidoptera: geometridae, larentiinae)ning Farg'ona vodiysida qayd etilishiga oid.....	190
Sh.X.Yusupova, I.I.Zokirov	
<i>Acyrtosiphon pisum</i> (Harris, 1776) shirasining morfo- ekologik xususiyatlari (Shimoliy Farg'ona misolida)	194
O.T.Sobirov, X.R.Kaxxorova, S.A.Tojimamatova, O'.Sh.Turg'unova	
<i>Lepidosaphes</i> avlodni bo'yicha ilmiy tadqiqotlarning bibliometrik tahlili	201
F.N.Mingboyev, S.M.Xaydarov, M.V.Obidov	
Mikrosuvo'tlari uchun ozuqa muhitini tayyorlash texnologiyasi (<i>Ankistrodesmus</i> misolida).....	211
D.R.Botirova, M.V.Obidov, D.R.Egamberdiyeva	
Evaluating substrate types for enhanced hydroponic strawberry yield and quality.....	216

QISHLOQ XO'JALIGI

G'.Yuldashev, Z.M.Azimov, I.N.Mamajonov	
Sho'rxoklarning singdirish sig'imi va kationlar tarkibining o'zgarishi	221
B.P.Rasulzoda, Z.A.Джаббаров	
Взаимоотношение длины междуузий, число стеблевых узлов и продуктивность колоса у сортов мягкой пшеницы	226
O.X.Sindarov	
Issiqxona sharoitida turli xususiyatlarga ega plyonkalarning qulupnay navlari barglaridagi biologik o'zgarishlarga ta'siri	232

GEOGRAFIYA

Y.I.Ahmadaliyev, D.X.Yuldasheva	
Farg'ona viloyatida demografik jarayonlar rivojlanishining hududiy xususiyatlari	237
E.G'.Maxkamov	
Hududiy turistik-rekreatsion tizimlarni geoekologik jihatdan baholash usullari	246
S.M.Xursanov	
Surxondaryo viloyatida aholi tashqi migratsiyaning hududiy tarkibi	249
Z.N.Tojieva, K.B.Omanova	
Jizzax viloyati mehnat migratsiyasining ba'zi jihatlari	257



УО'К: 061.6.(575.121)

BOTANIKA, BIOTEXNOLOGIYA VA EKOLOGIYA KAFEDRASI SHONLI TARIXI**СЛАВНАЯ ИСТОРИЯ КАФЕДРЫ БОТАНИКИ, БИОТЕХНОЛОГИИ И ЭКОЛОГИИ****THE GLORIOUS HISTORY OF THE DEPARTMENT OF BOTANY, BIOTECHNOLOGY, AND ECOLOGY****Akbarova Muxayyo Xusanovna¹** ¹Farg'ona davlat universiteti, b.f.f.d. (PhD), dotsent**Yusupova Zohidaxon Abdumalikovna²** ²Farg'ona davlat universiteti dotsenti**Annotatsiya**

Mazkur maqolada respublikamizning to'ng'ich oliy o'quv yurtlaridan biri bo'lgan Farg'ona davlat universiteti tarkibida tashkil topgan, tarixiy ildizlari va yuksalish bosqichlari oliyoh tarixi bilan uzviy bog'langan holda rivojlangan, nafaqat Farg'ona vodiysiga, balki O'zbekistonimizning turli viloyatlari, shuningdek, qator xorijiy mamlakatlarda ham yashab mehnat qilayotgan ziyoli kadrlarni yetishtirib berayotgan botanika, biotexnologiya va ekologiya kafedrasi tarixi haqida ma'lumotlar berilgan. Ayniqsa, kafedraning tashkil etilishi, uning uzoq yillik tarixi va bugungi qiyofasi, ilm va ta'liming asl fidoyilarini bo'lgan ustoz-murabbiylar faoliyati yoritilgan. Mazkur kafedraning professor-o'qituvchilari nafaqat ta'lim muassasalarini uchun, balki xalq xojaligining turli tarmoqlari uchun ham yuqori malakali, yurtimiz ravnaqi yo'llida fidokorona mehnat qilayotgan pedagoglar, olimlar, rahbar-xodimlar tayyorlashga munosib hissa qo'shib kelmoqdalar.

Аннотация

В данной статье представлена информация об истории кафедры ботаники, биотехнологии и экологии, созданной в составе одного из первых высших учебных заведений нашей республики Ферганского государственного университета. Исторические корни и этапы развития кафедры неразрывно связаны с историей вуза. Кафедра подготовила высококвалифицированные кадры не только для Ферганской долины, но и для различных регионов Узбекистана, а также для ряда зарубежных стран. Особое внимание уделено вопросам её основания, многолетней истории и современного облика, а также деятельности преподавателей-наставников, являющихся истинными подвижниками науки и образования. Профессорско-преподавательский состав кафедры вносит достойный вклад в подготовку высококвалифицированных педагогов, учёных и руководителей, которые самоотверженно трудятся не только в образовательных учреждениях, но и в различных отраслях народного хозяйства во имя процветания нашей страны.

Abstract

This article provides information on the history of the Department of Botany, Biotechnology, and Ecology, which was established as part of one of the first higher educational institutions in our republic, Fergana State University. The historical roots and stages of development of the department are inextricably linked with the history of the university. The department has trained highly qualified specialists not only for the Fergana Valley but also for various regions of Uzbekistan, as well as for a number of foreign countries. Special attention is given to its establishment, long-standing history, and current state, as well as the activities of teachers and mentors who are true devotees of science and education. The faculty of the department makes a significant contribution to the training of highly qualified educators, scientists, and leaders who selflessly work not only in educational institutions but also in various sectors of the national economy for the prosperity of our country.

Kalit so'zlar: Oliy pedagogika o'quv yurti, pedagog-botanik olim, botanika kafedrasi, ekologiya kafedrasi, florist, geobotanik, O'zRFA, PhD, dotsent, professor, akademik.

Ключевые слова: высшее педагогическое учебное заведение, педагог-ботаник, кафедра ботаники, кафедра экологии, флорист, геоботаник, АНРУз, PhD, доцент, профессор, академик.

Key words: higher pedagogical educational institution, teacher-botanist, department of botany, department of ecology, florist, geobotanist, Academy of Sciences of the Republic of Uzbekistan, PhD, associate professor, professor, academician.

KIRISH

Talaba-yoshlarimiz muayyan joyda tahsil olar ekan, o'zi o'qigan ta'lif dargohi haqida kengroq ma'lumotga ega bo'lishi zarur. Bu esa talaba-yoshlarni milliy qadriyatlarimizga muhabbat va sadoqat ruhida tarbiyalashda, o'zlarini ta'lif olayotgan ilm dargohi tarixini qay-darajada bilishi ular qalbida vatanparvarlik, kasbga sadoqat, ilm o'rganishga bo'lgan ishtiyoy hamda yuksak insoniy fazilatlarga nisbatan mehr-muhabbatni uyg'otish, bugungi kun global muammolarini yechimini topishda kreativ fikrlashni rivojlantirish va ijodiy yondashuvni oshirish, universitet rivojlanishi yo'lida zamonaviy, yangi loyihalarni amalgalashni oshirish va unda faoliyat ko'rsatishga chorlaydi.

O'zbekistonning dastlabki oliy pedagogika o'quv yurtlaridan biri bo'lgan Farg'ona davlat pedagogika instituti o'zining shonli tarixi davomida nafaqat O'zbekiston, balki butun Markaziy Osiyo mintaqasidagi yetakchi oliy o'quv yurtlaridan biriga aylanish yo'lida uzoq tarixiy va boy ijodiy yo'lini bosib o'tdi. Respublika hukumatining qarori bilan bu ziyo maskani-Farg'ona davlat pedagogika instituti 1930-yilda, bundan 95 yil muqaddam tashkil etilgan.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Farg'ona pedagogika instituti tashkil qilingan 1930-yilda taniqli olim professor V.I.Zavadskiy tomonidan biologiya kafedrasiga asos solingan. 1931-yildan kafedraga professor S.V.Averinsev rahbarlik qilgan. 1937-yilda biologiya kafedrasidan botanika va zoologiya kafedralari ajralib chiqqan. Botanika kafedrasiga dotsent A.A.Stekker, dotsent L.I.Sergeyevlar 1941-yilgacha rahbarlik qilgan. 1941-yili Ikkinchiji jahon urushi boshlanishi bilan botanika va zoologiya kafedralari birlashtirilib, unga A.M.Muhammadiyev mudir etib tayinlandi.

Dastlabki yillarda kafedrada O'zbekiston Fanlar Akademiyasi akademigi, biologiya fanlari doktori, professor Ahror Muzaffarov faoliyat yuritgan. U 1937-1946 yillarda kafedrada o'qituvchi, keyinchalik dotsent lavozimlarida ishlagan. Professor S.V.Averinsev rahbarligida 1943-yilda «Marg'ilonsoy va Farg'ona ariqlarining suvo'tlari» mavzusida nomzodlik dissertatsiyasini yoqlagan. O'zbekistonda biologiya fanini taraqqiyoti va tarixida o'ziga xos o'chmas iz qoldirgan yirik botanik-algolog olim A.Muzaffarov eng to'ng'ich Farg'ona botaniklaridan hisoblanadi. U 1959 yilda «O'rta Osiyo tog'lari suv havzalaridagi suv o'tlari florasi» mavzusida biologiya fanlari doktori darajasini olish uchun dissertatsiya himoya qildi. 1950-1956 yillarda O'zFA botanika institutining sporali o'simliklar labaratoriysi boshlig'i, 1956-1960 yillarda shu yerda direktor lavozimlarida faoliyat olib boradi. 1960-yilda O'zbekiston Fanlar Akademiyasi prezidiumi a'zosini bo'lib saylanadi. A.Muzaffarov ixtisosi keng olim, O'rta Osiyoning turli havzalari suv florasi bo'yicha mutaxassis, O'zbekistonda tashkil topgan algologiya mabtabining asoschisi sifatida tanilgan yetuk olim edi.

1949-yilda qaytadan «Botanika» kafedrasini tashkillandi, kafedraga dotsent N.G.Shafiyev mudirlik qildi. 1950-yilda kafedraga yetakchi olimlardan S.S.Saxobiddinov O'zRFA Botanika institutidan ishga taklif qilindi, dastlab dotsent, 1952-yildan kafedra mudiri, 1981-yildan umrining oxirigacha (1994) S.Saxobiddinov kafedra professori lavozimida ishlab keldi. Botanik-xomashyoshunos, florist, sistematik olim 1938-yilda «O'rta Osiyoning yovvoyi holda o'suvchi dorivor o'simliklari va ularning xalq meditsinasida qo'llanilishi» mavzusida nomzodlik dissertatsiyasini himoya qilgan. S.Saxobiddinov o'z ilmiy faoliyatini respublika hududidagi begona o'tlar, zaharli va dorivor-xomashyobop, foydali o'simliklar zaxiralari aniqlash, shuningdek, oliy o'quv yurtlari uchun darsliklar yaratishga qaratgan. 170 dan ziyod ilmiy va ommabop asarlar yozgan. Jumladan, «O'rta Osiyoning dorivor o'simliklari» (1948), «O'zbekistonda eng ko'p tarqalgan begona o'tlar va unga qarshi kurash choralar» (1951), «O'rta Osiyo florasida dorivor o'simliklar» (1948), «O'zbekistonning yovvoyi dorivor o'simliklari» (1955), «Farg'ona vodiysi torflari» (1949), «Botanikadan qisqacha terminologik lug'at», (1939), «Botanikadan qisqacha ruscha-o'zbekcha lug'at» (1954), «O'rta Osiyo o'simliklarining ilmiy va mahalliy nomlari lug'ati» (1963), «Tuban o'simliklar sistematikasi» (1957), «Gulli o'simliklar sistematikasi» (1963) kabi kitob va risololarni chop ettirgan. O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan fan arbobi, biologiya fanlari nomzodi, professor Siroj Saxobiddinov o'z faoliyatida kafedrani malakali xodimlar bilan boyitishga alohida e'tibor berdi. Mazkur yillarda kafedrada yetuk pedagog-botanik olimlardan U.U.Saydaliyev, G.F.To'ychiyev, M.S.Sultonov, R.Sh.Shonazarov, P.X.Xolqo'ziyev, T.X.Xudoyberdiyev, M.M.Mo'minov, L.A.Sheraliyeva, Y.P.Parpiyev, A.A.Abduraxmonov, A.Y.Yo'ldashev, R.S.Saxobiddinov va boshqalar samarali ilmiy faoliyat olib borganlar.

1963-yilda O'zRFA akademigi Q.Z.Zokirov Farg'ona davlat pedagogika instituti rektori lavozimida ishlagan davrida uning ilmiy-pedagogik faoliyati «Botanika» kafedrasini tarixi bilan uzviy bog'landi. Taniqli sistematik, botanik-geograf, florist, xomashyoshunos, geobotanik, o'zbek

BIOLOGIYA

botanika atamashunosligining asoschisi, biologiya fanlari doktori, professor O'zRFA akademigi Q.Z.Zokirov o'zining qator ishlarida O'rta Osiyo florasingning kelib chiqishi to'g'risidagi Vagnerning migratsiya nazariyasini rad etib, mahalliy florani o'ziga xosligini asoslab, A.Krasnovning (1869) avtoxton nazariyasini ijodiy rivojlantirdi. Fan va davlat arbobi, o'zbek botaniklarining «otasi» deb tanilgan Q.Zokirov 1963-1966 yillarda Farg'ona davlat pedagogika institutining rektori lavozimida faoliyat ko'satgan davrda respublikamizning o'sha yillardagi ilm-fan markazlari Toshkent, Samarqand tomonlardan ilmga chanqoq, kelajakda botanik olim bo'lishga ahd qilgan yoshlar oqimi Farg'ona tomonga kela boshlagan. Q.Z.Zokirov bu yerda professor S.S.Saxobiddinov tomonidan boshlangan «Farg'ona botaniklar maktabi»ni rivojlanishiga ulkan hissa qo'shgan.

Botanika kafedrasiga 1981-1986 hamda 1990-1993-yillarda biologiya fanlari doktori, professor T.X.Xudoyberdiyev rahbarlik qilgan. Izlanuvchan geobotanik olim 1971-yilda «Oloy tog'i shimoliy yonbag'ri o'simlik qoplamida labguldoshlarning roli» mavzusidagi nomzodlik, shuningdek, uzoq yillar davomida olib borgan ilmiy izlanishlari yakuni asosida 1997-yilda «Farg'ona vodiysi o'simlik qoplamidagi yalpizdoshlar» mavzusidagi doktorlik dissertatsiyalarini muvaffaqiyatli himoya qilgan.

1986-1990 yillarda dotsent R.Sh.Shonazarov botanika kafedrasiga mudirlik qildi. R.Shonazarovning «G'arbiy Oloy tizmasi efemeretumi» (1967) mavzusidagi Oloy tizmasining g'arbiy qismida olib borilgan tadqiqot ishi efemerlarga bag'ishlangan bo'lib, tadqiqot davomida efemer va efemeroидlar vegetatsiya davrining davomiyligi, hayotiy shakkllari, tik mintaqalar bo'yicha geografik tarqalishi va boshqa ko'rsatkichlari bo'yicha tahlil qilingan. Shuningdek, olim Farg'ona viloyati o'simliklari, hayvonot olami va boshqa tabiatning noyob yodgorliklarini o'rganish, ularni muhofaza qilish hamda mabkab o'qituvchilar, oliy o'quv yurti talabalari uchun darslik va qo'llanmalar («Yuksak o'simliklar sistematikasi») yaratish borasida ham izlanishlar olib borgan.

1993-2000 yillarda botanika kafedrasiga O'rta Osiyo respublikalariga tanilgan mashhur botanik R.V.Kamelinning birinchi shogirdi o'z vaqtida (1991) o'zbek botaniklarining otaxoni Q.Z.Zokirovning «O'tkir botanik ko'zga ega tadqiqotchi» degan ifodalari bahosi va fotihasini olgan professor A.M.Mahmedov rahbarlik qilgan. 2000-yil sentyabr oyida kafedralar faoliyatini muvofiqlashtirish jarayonida «Botanika» va «Tabiiyot o'qitish metodikasi» kafedralari birlashtirilib «Botanika va biologiya o'qitish metodikasi» kafedrasi tashkillandi. 2004-yilning noyabr oyida universitet tarkibiy tuzilmasidagi o'zgarishlarga asosan kafedra tarkibi kengaytirilib yana «Botanika» kafedrasi deb nomlandi hamda professor A.Mahmedov 2004-2006 yillar davomida mudir sifatida faoliyat olib borgan. O'rta Osiyo florasingning zamona viy bosqichga olib chiqqan sistematik va florist, fitogeografi va florogenetik olim A.M.Mahmedov o'zining qator ishlarida O'rta Osiyo va unga tutash hududlar florasingning labguldoshlar oilasi vakillarini, bu oilaning flomis, flomoides, eremostaxis, paraeremostaxis kabi katta turkumlarini dunyo miqiyosida o'rganish natijasida O'rta Osiyo florasingning chiqib kelishi to'g'risidagi Vagnerning migratsiya (ko'chish), M.Popovning gibrizatsiya (duragaylanish) nazariyalariga qarshi o'laroq Q.Z.Zokirov (1955-1975), R.M.Kamelinlar (1973) tomonidan aniq dalillar bilan asoslanib berilgan «avtoxton nazariya» ijodiy rivojlantirilgan. Mazkur turkumlarni yangi tizimi va filogeneyasi ishlab chiqilgan. Uning rahbarligida botanika kafedrasida Farg'ona vodiysi florasingini inventarizatsiya qilish mavzusida tadqiqot ishlari olib borilgan. Bu ishlardan bosh maqsad vodiylar hujudidagi kam o'rganilgan yoki haligacha o'rganilmagan tabiiy mintaqalar - So'x, G'ovasoy, Pochchaota, Zargarsoy, Isfayramsoy suv havzalari, Boyboshota, Chilustun, Qatrontog' kabi kichik tog' tizmalari hamda Marhamat, Arsif, Avval, Chimyon adirlari flora va o'simlik qoplami kadastrini tuzish, «aniqlagichlar» va botanikaga oid boshqa o'quv qo'llanmalar tayyorlash, o'simlik xomashyolaridan oqilona foydalanish, sun'iy o'tloqlar barpo qilish, bu yo'lda tavsiyalar va boshqa ko'rsatmalar yaratishga qaratilgan. A.Mahmedov «O'zbekiston Respublikasi Qizil kitobi» (1998), «O'rta Osiyo o'simliklari aniqlagichi» (1987-1993) tuzishda va nashr etishda qatnashgan mualliflardan biri. A.Mahmedov kafedraning o'quv-uslubiy jarayonlarini takomillashtirish, moddiy-texnik bazasini mustaxkamlash borasida ham o'zining munosib hissasini qo'shgan. Kafedra huzurida oranjereya, gerbariy, botanika mutaxassisligi bo'yicha magistratura va aspirantura faoliyati yo'lga qo'yilgan. Mazkur davrda kafedrada yuqori salohiyatli yetuk olimlardan O'rta Osiyodagi o'simliklar ekologik anatomiyasi maktabining asoschisi V.K.Vasilevskayaning shogirdi professor A.S.Dariyev 1990-2008 yillar davomida ilmiy darajali yosh kadrlar tayyorlash jarayoniga o'zining katta hissasini qo'shgan.

A.S.Dariyev uzoq yillar davomida olib borgan anatomik va morfologik tadqiqotlariga asoslanib, avval chegarasi aniq bo'lmagan gulxayridoshlar va baobabdoshlar oilalarini aniqlab bergan. G'o'za navlarining viltga chidamlilik darajasini aniqlashning ekpress uslubini ishlab chiqqan. U ilmiytadqiqot faoliyatni davomida 9 nafar tadqiqotchining nomzodlik dissertatsiyasiga ilmiy rahbarlik qilgan.

NATIJA VA MUHOKAMA

Hozirda kafedra tarkibiga kirgan «Ekologiya» kafedrasini dastlab 1991-yilda «**Regional ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish» nomi ostida** tashkil etilib, kafedraga biologiya fanlari doktori G'.Hamidov mudir etib tayinlangan. Taniqli geobotaniklar A.B.Butkov va I.I.Granitovlarning shogirdi bo'lgan professor G'.Hamidov «Bo'stonliq rayonining asal-shirali o'simliklari» (1967) mavzusida nomzodlik, hamda «O'zbekistonning asalli o'simliklari resurslari va ulardan foydalanish» (1989) mavzusida doktorlik dissertatsiyalarini muvaffaqiyatli himoya qilgan. Ilmiy faoliyatida 964 ta asalli o'simliklar turini va ularning nektar ajratish jarayonlarini hamda 100 turdan ortiq yangi asalli o'simliklarni aniqlagan. Keyinchalik, kafedralar faoliyatini muvofiqlashtirish jarayonida «Ekologiya» va «Botanika» kafedralari negizida «**Umumiy ekologiya va botanika kafedrasini** tashkil etilgan. G'.Hamidov 1991-1994 hamda 2005-2010 yillarda kafedra mudiri lavozimida xizmat ko'rsatgan. G'.Hamidov Farg'ona viloyati o'simlik va hayvonot olami kadastrini tuzishda faol ishtirok etgan (2012), «Farg'ona vodiysining dorivor o'simliklari, ulardan samarali foydalanish va muhofaza qilish» (2014), «O'zbekistonning asalli o'simliklari va asalarichilagini rivojlantirish» nomli monografiyalari (2016), O'zbekistonning asalli o'simliklari (1977), «O'zbekistonda foydali o'simliklarni muhofaza etish» (1990) kabi bir necha risolalar, 200 ga yaqin ilmiy maqolalar chop etgan. Mashhur «O'zbekiston o'simliklari qoplamasi» nomli monografiyaning hammulliflaridan biri hisoblanadi.

Kafedrada «Ekologiya va tabiatdan foydalanish», «Ekologiya va atrof-muhit muhofazasi» bakalavriat, 2004 yildan boshlab «Ekologiya va tabiatdan foydalanish», «Ekologiya» (qishloq xo'jaligi), «Ekologik ekspertiza» magistratura mutaxassisligi bo'yicha kadrlar tayyorlanib kelinmoqda.

2006–2009 yillarda kafedraga dotsent A.Gadoyev, 2009–2011 yillarda dotsent A.Sobirov rahbarlik qilgan.

2011-yil dekabrdan boshlab birinchi o'zbek antekolog va sitoembriolog olim J.Yu.Tursunovning rahbarligida «O'zbekiston sharoitida *Amaranthus cruentus*.L.U. va *A.hybridus*ning gullah va mevalash biologiyasi» mavzusidagi nomzodlik dissertatsiyasini muvaffaqiyatli himoya qilib, biologiya fanlari nomzodi ilmiy darajasini olgan M.A.Davidov «Umumiy ekologiya va botanika» kafedrasiga mudir etib tayinlangan.

2018-yil 9-avgustdagagi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi bilan kelishilgan holda, Farg'ona davlat universiteti ilmiy kengashining 2018-yil 30-maydaggi 10-sonli yig'ilish bayonnomasiga asosan **Botanika kafedrasini** qayta tashkil etilib, uning mudiri etib M.Davidov tayinlangan. M.Davidov kafedraning o'quv-uslubiy jarayonlarini takomillashtirish, moddiy-texnik bazasini mustaxkamlash borasida o'zining munosib hissasini qo'shgan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagagi «O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasi to'g'risida» gi PF-4947-sون Qaroriga asosan 2018-2019 o'quv yildan Farg'ona davlat universiteti botanika kafedrasini qoshida 5A140104 - Biotexnologiya mutaxassisligi bo'yicha magistratura faoliyati yo'liga qo'yildi. Hozirga qadar kafedra qoshidagi magistraturani elliandan ortiq malakali mutaxassislari bitirib, magistr akademik darajalarini olishdi. Ular sohaga oid turli muassasalarda, shu jumladan, Farg'ona davlat universitetida, Farg'ona jamoat salomatligi instituti, Markaziy Osiyo tibbiyot universitetlarida samarali mehnat qilishmoqda.

2018–2022 yillarda biologiya fanlari nomzodi, dotsent M.M.Yunusov «**Ekologiya kafedrasini** mudiri lavozimida ishlagan.

Farg'ona davlat universitetining 2021 yil 2 noyabrdagi 3-sonli yig'ilish bayonnomasiga asosan Botanika kafedrasini «**Botanika va biotexnologiya**» nomiga o'zgartirilgan. 2022-yil 7-oktyabrdan boshlab k.f.f.d. (PhD) M.Imomova kafedra mudiri lavozimiga tayinlangan.

«**Ekologiya kafedrasini** 2022-yil 7-oktyabrdan boshlab k.f.f.d. (PhD) Sh.Turg'unboyev rahbarligida faoliyatini davom ettirgan.

BIOLOGIYA

Universitet kuzatuv kengashining 2024-yil 30-yanvardagi 1-sonli yig'ilish qarori va universitetning yangi tashkiliy tuzilmasi hamda «Oliy ta'lim muassasalari kafedrasi to'g'risida» gi nizomga asosan, **Tabiiy fanlar fakulteti** tarkibidagi **«Botanika va biotexnologiya»** hamda **«Ekologiya»** kafedralari birlashtirilib, **«Botanika, biotexnologiya va ekologiya»** kafedrasi tashkil etildi, kafedra mudiri lavozimiga biologiya fanlari falsafa doktori (PhD) A.A. Ma'rupov tayinlandi va hozirda faoliyat olib bormoqda.

Keyingi yillarda kafedrada yuqori salohiyatlari yetuk olimlar jamoasining shakllanishi, ilmiy darajali yosh kadrlar tayyorlash jarayonida ham muhim ahamiyat kasb etdi. Bu davrda kafedra tadqiqotchilaridan M.P.Yuldasheva (2019), K.A.Asqarov (2022), M.X.Akbarova, M.F.G'aybullayeva, N.K.Saydaliyevalar (2024) doktorlik (PhD) dissertatsiyalarini muvaffaqiyatli himoya qilishdi va falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini oldilar, natijada kafedra ilmiy salohiyati ortdi va hozirda 66,6 foizni tashkil etadi.

Keyingi yillarda kafedrada yuqori malakali ilmiy-pedagogik kadrlar tayyorlash, ta'lim yo'nalishi va mutaxassisliklari uchun zamonaviy o'quv va ilmiy adabiyotlar yaratish, iqtidorli talabalar bilan ishslash, davlat va xalqaro grantlari doirasidagi ilmiy tadqiqotlarni yo'lga qo'yish borasida ko'plab ijobjiy yutuqlarga erishildi. Jumladan, kafedrada yosh olimlarning 2017-2018 yillarda Farg'ona viloyati Transfer markazi bilan hamkorlikda I-2017-5-19- raqamli fundamental tadqiqotlar ilmiy loyihasi bo'yicha, «Meva va sabzavotlarning zararkunandalariga qarshi kurashda tabiiy giyohlardan foydalanishni amaliyatga joriy etish» loyihasi bo'yicha tadqiqot ishlari olib borildi.

Mamlakatimizda ta'lim tizimini takomillashtirish va uni zamon talablariga moslashtirish, zamonaviy axborot texnologiyalariga asoslangan, jahon andazalari darajasidagi tizimni yaratishda kafedrada ilmiy tadqiqotlar bilan birgalikda o'quv va o'quv uslubiy ishlarni yaratish bo'yicha ham samarali ishlar olib borilmogda. Botanika, biotexnologiya va ekologiya kafedrasi professor-o'qituvchilari tomonidan 2015-2025 yillar davomida **5 ta** darslik, **10 ta** monografiya, **20 ta** o'quv qo'llanma, **34 ta** o'quv-uslubiy qo'llanmalar chop etildi. Xususan, mazkur yillarda «Muhofaza etiladigan tabiiy hududlar» (M.Xoliqurov, G.Maxsudova, 2019), «Ekologik ekspertiza» (M.Nazarov, M.Xoliqurov, 2022), «Dorivor o'simliklar flora va sistematikasi» (V.Maxmudov, 2022), «O'zbekistonning dorivor o'simliklari» (V.Maxmudov, M.Akbarova, Z.Yusupova, 2025), «Gulli o'simliklar anatomiysi» (M.Akbarova, M.Davidov, 2025) nomli **darsliklar**, «O'zbekiston asalli o'simliklari va asalarichilikning rivojanish istiqbollari» (G'.Hamidov, M.Akbarova, M.Davidov, M.Xoliqurov, 2019), «Muhit omillarinini g'o'zaning bioekologik xususiyatlariga ta'siri» (D.Ahmedova, M.Nazarov, 2019), «Shoximardonsov - Marg'ilonsoy havzasi algoforasining taksonomik tahlili, ekologiyasi va ulardan foydalanish» (X.Alimjanova, M.Yuldasheva, 2020), «Shimoliy Farg'ona kanali havzasi algoforasining ekologiyasi, taksonomik taxlili va ulardan foydalanish» (X.Alimjanova, M.Yuldasheva, A.Solieva, M.Djurabaeva, 2022), «Farg'ona vodiysining dorivor yalpizdoshlari» (M.Akbarova, Z.Yusupova, 2022), «Sof ekologik maxsulotlar yetishtirishda dukkakli va sideratlarning o'rni» (M.Nazarov, M.Abdullayeva, M.Yunusov, 2022), «Istiqbolli g'o'za navlarining Farg'ona viloyati iqlim sharoitiga moslashishini o'rganish» (D.Ahmedova, 2022), «Farg'ona vodiysi florasida tarqalgan *Scutellaria* L. turkumi (taksonomiyasi, geografiyasi va fitotsenologiyasi)» (M.Akbarova, 2024), «Farg'ona viloyati sharoitida no'xat navlarini yetishtirish» (M.Gaybullayeva, 2024), «Yozyovon davlat tabiat yodgorligi florasi» (M.Akbarova, V.Maxmudov, Z.Yusupova, 2024) nomli **monografiyalar**, «Dehqonchilikning tejamkor texnologiyalari» (M.Nazarov, K.Mirzajonov, O.Ibragimov, S.Isayev, 2015), «Ekologiya va atrof muhit muhofazasi» (M.Nazarov, O.Ibragimov, Sh.Mamajonov, 2016), «O'simliklar sitoembriologiyasi» (M.Davidov, 2018), «Populyatsiyalar ekologiyasi» (M.Xoliqurov, 2019), «Chiqindishunoslik» (M.Nazarov, M.Abdullayeva, M.Xoliqurov, 2020), «Suv havzalarining sanitarni holati» (M.Nazarov, Sh.Xalmatova, 2020), «Экология и охрана окружающей среды» (M.Nazarov, Sh.Mamajonov, 2021), «Sitoembriologiya atamalar izohli lug'ati» (V.Maxmudov, M.Maxmudov, 2022), «Ekologiya fanini o'qitishda zamonaviy yondashuvlar» (D.Ahmedova, M.Yunusov, 2022), «O'zbekistonning xomashyobop o'simliklari» (V.Maxmudov, M.Akbarova, Z.Yusupova, 2023), «Farg'ona vodiysining manzarali o'simliklari» (V.Maxmudov, M.Akbarova, 2023), «Ijtimoiy ekologiya» (M.Nazarov, M.Abdullayeva, 2023), «Dorivor o'simliklar flora va sistematikasi» fanidan amaliy mashg'ulotlar» (V.Maxmudov, 2024), «Ekologik siyosat» (M.Abdullayeva, M.Gaybullayeva, 2024), «Tuproq va agroekologiya» (M.Nazarov, M.Abdullayeva, O.Ibragimov, 2024), «Bioekologiya» (D.Ahmedova,

M.Gaybullayeva, G.Maxsudova, 2024), «Farmakopeya dorivor o'simliklari fanidan amaliy mashg'ulotlar» (M.Haydarov, M.Abdurahimova, 2024), «Ekologiya o'qitish metodikasi» (D.Ahmedova, Sh.Mamajonov, G.Maxsudova, 2024), «Dorivor o'simliklar resursshunosligi» (Q.Davronov, X.Abduxakimova, M.Abdurahimova, 2024), «Botanika fanidan o'quv dala amaliyoti» (M.Akbarova, Z.Yusupova, 2025) nomli **o'quv qo'llanmalar** chop ettirildi.

Kafedra olimlari va tadqiqotchilari tomonidan so'nggi 10 yil (2015-2025 yillar) da olib borilgan ilmiy tadqiqotlar asosida xalqaro bazaga kiritilgan xorijiy nashrlarda 372 ta, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan e'tirof etilgan ilmiy jurnallarda jami 402 ta maqolalar chop etildi. Bu borada, Scopus bazasidagi ilmiy jurnallarda V.Maxmudov (2 ta), M.Akbarova (2 ta), G.Shokirova (2 ta), D.Ahmedova (1 ta), M.Davidov (1 ta), Z.Yusupova (1 ta), M.Abdullayeva (1 ta), Sh.Xalmatova (1 ta), M.Yuldashova (1 ta), G.Maxsudova (1 ta), K.Asqarov (1 ta) lar tomonidan ilmiy maqolalar nashr ettirildi.

Kafedrada O'zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasining Botanika inistituti bilan hamkorlik faoliyati yo'lga qo'yilgan bo'lib, ilmiy-pedagogik kadrlar tayyorlash istiqbolli rejasini ishlab chiqilgan va mazkur reja asosida 2020-2021 o'quv yilda biologiya yo'nalishi 4-kurs talabasi Ergashev Ibroximjon Abduvali o'g'li botanikadan ilmiy-tadqiqot ishlarini amalga oshirish uchun Botanika institutiga stajirovkaga jo'natildi hamda «El-yurt umidi» jamg'armasi 2023 yilgi 2-mavsum stipendiasi tanlovi g'olib bo'ldi hamda 2023-2025 yillarda Xitoy Fanlar akademiyasi universiteti, Kunming Botanika institutida magistraturani muvaffaqiyatli tamomlab qaytdi.

Kafedraning xalqaro hamkorligi doirasida Sankt-Peterburg davlat universiteti professori, biologiya fanlari doktori Yevgeniy Vasilyevich Abakumov (2019), Turkiyaning Pamukkale davlat universiteti professori, biologiya fanlari doktori Ramazan Mammadov (2019), Rossiya Federatsiyasi Tomsk davlat universiteti biologiya fanlari nomzodi dotsent Shegoleva Nataliya Valeriyevna (2021, 2023), Pokiston Islomobod Quaid-i-Azam universiteti professori doktor Muhammad Zafar (2023), Qirg'iziston Respublikasi Jalolobod davlat universiteti dotsenti Jenbekova Burulay Joldubayevna (2023), Osh davlat universiteti dotsentlari Abilayeva Baktigul Akmataliyevna va Tashmatova Nurila Kubatovna (2023), Moskva davlat pedagogika universiteti botanika kafedrasi professori, biologiya fanlari doktori Godin Vladimir Nikolayevich (2024) kabi yetakchi xorijiy mutaxassislar biologiya va ekologiya yo'nalishi talabalariga «Botanika», «O'simliklar fiziologiyasi», «Gidroekologiya», «Amaliy enzimologiya», «Botanika va o'simliklar fiziologiyasi», «Ekotoksikologiya» kabi fanlardan mashg'ulotlar o'tishgan.

2024-yil 13-dekabr kuni Botanika, biotexnologiya va ekologiya kafedrasi professor-o'qituvchilari tomonidan nufuzli oliy ta'lim muassasalari va tashkilotlar, shuningdek, Qozon federal universiteti, Qozoq milliy pedagogika universiteti, O'zbekiston Ekologik partiyasi markaziy kengashi, Farg'ona viloyat ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi boshqarmasi bilan hamkorlikda tashkil etilgan «Iqlim o'zgarishi, tabiatdan oqilona foydalanish muammolari va istiqbollari» mavzusida xalqaro ilmiy-amaliy anjuman o'tkazildi. Mazkur anjumanga Qirg'iziston Respublikasi Osh davlat universiteti professori T.T.Jumabayeva, dotsent B.A.Abaliyeva va bir qator olimlar tashrif buyurdilar.

Kafedrada iqtidorli talabalar bilan ishlashning «Ustoz-shogird» tizimidagi ishlari samarali tashkillangani sababli, kafedra katta o'qituvchisi Akbarova Muxayyo Xusanovna ilmiy rahbarligida biologiya o'qitish metodikasi yo'nalishi talabasi U.R.Mo'ydinov Respublika talabalar fan olimpiadasida 1-o'rinni (2018), Ekologiya kafedrasi dotsenti D.M.Ahmedova rahbarligida ekologiya yo'nalishi talabasi T.I.Umarov Oliy ta'lim muassasalari o'ttasida o'tkazilgan onlayn fan olimpiadasida II-o'rinni (2020) egallahadi.

Kafedra fidoyi botanik ustozlarining «Ustoz-shogird» maktabi faoliyati yutuqlari natijasida M.X.Akbarova ilmiy rahbarligida biologiya yo'nalishi talabasi Z.N.Jo'rayev Avliyoxon Muhammadiyev nomidagi universitet ichki stipendiyasi (2020-2021), Ulug'bek nomli davlat stipendiyasi (2021-2022) hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti davlat stipendiyasiga (2022-2023) sazovor bo'ldi. Botanika va biotexnologiya kafedrasi katta o'qituvchisi Z.A.Yusupova ilmiy rahbarligida dorivor o'simliklarni yetishtirish va qayta ishslash texnologiyasi yo'nalishi talabasi F.B.Sayramov Islom Karimov nomli davlat stipendiyasiga (2023-2024), kafedra professori G.Hamidov ilmiy rahbarligida Biotexnologiya mutaxassisligi magistranti D.R.Axmatova (2023-2024) hamda dotsent D.M.Ahmedova rahbarligida Ekologiya va atrof-muhit muhofazasi yo'nalishi talabasi T.B.Norqo'ziyeva Avliyoxon Muhammadiyev nomli universitet stipendiyasiga (2019-2020),

BIOLOGIYA

kafedra o'qituvchisi I.R.O'rinboyev ilmiy rahbarligida biologiya yo'nalishi talabalari F.B.Umurzakova (2023-2024), F.R.Jumaboyeva (2024-2025) lar Ulug'bek nomli davlat stipendiyasi, O'.M.Yursunova O'zbekiston qahramoni Lola Murotova nomidagi universitet ichki stipendiyasiga sazovor bo'ldilar.

Hozirgi kunda ilm-fan va ta'lim sohasida ulkan yutuqlarga erishgan, pedagogik va ilmiy faoliyati yosh avlod uchun ibrat maktabiga aylangan fidoyi ustozlardan V.Maxmudov o'zining sermahsul mehnat faoliyati davomida O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Botanika instituti aspiranti, katta ilmiy xodimi, Farg'ona davlat universiteti dotsenti, fakultet dekani, Qo'qon davlat instituti rektori lavozimlarida faoliyat yuritgan. V.Maxmudov rahbarligida 2 nafar tadqiqotchilar nomzodlik dissertatsiyalarini himoya qilgan. Biologiya fanlari nomzodi, dotsent V. Maxmudov yurtimiz ta'lim va ilm-fan rivojiga qo'shgan hissasi uchun «Xalq ta'limi a'lochisi» ko'krak nishoni bilan taqdirlangan. Ustoz o'quv-uslubiy hamda ilmiy-tadqiqot sohalarida samarali faoliyat olib borib, 200 dan ortiq ilmiy ishlar chop etgan. Ustozning 5 ta darslik, 15 ta o'quv qo'llanma, 3 ta monografiya va risolalari, xalqaro ilmiy jurnallarda 50 ga yaqin, Oliy attestatsiya komissiyasi ro'yxatiga kiritilgan Respublika jurnallarida 80 dan ortiq maqolalari nashr etilgan. Shuningdek, xalqaro va respublika ilmiy-amaliy anjumanlarda 100 ga yaqin tezislari e'lon qilingan.

O'zining boy tajribasi va ilmiy salohiyati bilan ta'lim-tarbiya jarayoniga ulkan hissa qo'shgan ustozlardan biri professor M.Nazarovdir. Uning ilmiy rahbarligida 4 nafar tadqiqotchi nomzodlik dissertatsiyalarini muvaffaqiyatli himoya qilgan. Ustoz 10 ta darslik, 2 ta monografiya, 11 ta o'quv qo'llanma va 100 dan ortiq ilmiy maqolalar chop ettirgan.

Kafedrada hozirgi kunda 1 nafar professor, 8 nafar nafar fan nomzodi (PhD) dotsentlar, 5 nafar (PhD) katta o'qituvchilar hamda 7 nafar malakali va yosh o'qituvchilar o'quv-uslubiy va ilmiy-pedagogik faoliyat olib borishmoqda. Kafedra ilmiy salohiyati 66,6 % ni tashkil etadi.

XULOSA

Atoqli ma'rifatparvar, iste'dodli shoir va pedagog Abdulla Avloniy: «Har bir millatning saodati, davlatning tinchi va rohati yoshlarning yaxshi tarbiyasiga bog'liqidir» degan. Demak, ustozlarning zimmasiga juda ham buyuk mas'uliyatli vazifa yuklangan. Bu ham bo'lsa, kelajagi buyuk davlat uchun komil, har tomonlama yetuk va barkamol, ma'nан va axloqan pok, vatanparvar va insonparvar insonlarni tarbiyalab chiqarish vazifasi. Saboq berish – mahorat, dars o'tish–san'at. Yaxshi pedagog bo'lish uchun o'z fanini chuqur bilishning o'zi yetarli emas. O'qituvchilik serqirra faoliyat, aslida, u deyarli har bir fan bo'yicha hech bo'lmaganda umumiy bilimlarni egallashi, yaxshi notiq, malakali psixolog, o'rni kelganda mahoratlari aktyor ham bo'lishi kerak. Farg'ona davlat universitetida hozirgi kunda iste'dodli, salohiyatli, bir so'z bilan aytganda, o'z kasbining fidoyi insonlari ilmiy-pedagogik faoliyat olib bormoqda. Bu esa universitetni buyuk kelajak kutayotganidan dalolat beradi.

Jonajon universitetimizda ayni vaqtida Tabiiy fanlar fakultetida Botanika, biotexnologiya va ekologiya kafedrasi, Zoologiya va umumiy biologiya kafedrasi, Kimyo kafedrasi, Geografiya kafedralari faoliyat olib bormoqda.

Talabalik oltin davrga qiyoslanadi, chunki bu davrda olingan ta'lim nafaqat kelajakdag'i kasbiy tayyorgarlikning mustahkam asosi, balki qiyinchiliklardan qo'rqmaydigan, mustaqil fikrlay oladigan va ijodiy yondashuvga ega inson bo'lib shakllanish baxtinga tuyassar qiluvchi takrorlanmas va unutilmas umr bahoridir. Har qancha qo'msamaylik, yodga olmaylik o'sha beg'ubor va betakror talabalik davri bizda doimo yorqin, porloq xotiralar bilan qalbimizda qoladi. Shunday ekan, talabalarimiz qayerda bo'lsa ham, biz Farg'ona davlat universiteti bituruvchisimiz, deb baralla aytib, faxlanib yurishi bizga g'urur baxsh etadi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

- Маъмуроев Т., Абдуллаев Ш. Ферганский государственный педагогический институт им. Улугбека – кузница подготовки учителльских кадров. – Т.: Узбекистан, 1991.
- Уринов А.Қ., Аҳмедов М.Ҳ. Илм ва Зиё маскани. – Фарғона. 2003.
- Фарғона давлат университети олимлари (библиографик маълумотлар). – Фарғона. 2003.
- Фарғона давлат университети: тарих ва юксалиш йиллари. К.1: публистик нашр. –Фарғона: “Фарғона” нашириёти, 2015. – 296 б.
- Ферганский государственный педагогический институт им. Улугбека (краткий исторический очерк). – Т.: Фан. 1980.